

AYOLLAR KO‘YLAGINI O‘LCHAMGA TAYYORLASH VA QOMATDA KIYIM NUQSONLARINI ANIQLAB BARTARAF ETISH

Mamatqulova Saida Raxmatovna

Farg‘ona davlat texnika universiteti,

Yengil sanoat muhandisligi kafedrası, katta o‘qituvchi (PhD), E-mail:

sm.mamatqulova@ferpi.uz

Yaxyojonova Mohidil Husan qizi

Farg‘ona davlat texnika univeristeti

Yengil sanoat muhandisligi kafedrası assistenti

E-mail: yaxyojonovam@gmail.com

Anotatsiya: *konstruktiv nuqsonlarni aniqlash va bartaraf etish yo‘llarini aniqlashni, ish jarayonlarini mexanizatsiyalash uchun texnologik jihozlardan foydalaniladi. Hozirgi vaqtda kiyim-kechak ishlab chiqarishni tashkil etish bo'yicha.*

Tayanch so‘zlar: *qalam, libos, santimert lenta, chizg‘ich, manikin, shim, ko‘fta, texnologiya, jarayon, qomat, nuqson.*

Kiyim konstruksiyasidagi nuqsonlar tikuv buyumining funksional qulayligi va estetik ko‘rinishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday nuqsonlar odatda konstruktorlik hisoblaridagi aniqlik yetishmasligi, mato xossalarining to‘liq hisobga olinmasligi yoki texnologik jarayonlardagi xatoliklar natijasida yuzaga keladi.

Hozirgi davrda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi natijasida kiyim konstruksiyasini yaratish va tekshirish jarayonlari ancha soddalashmoqda. 3D modellashtirish dasturlari yordamida inson qomatining aniq modeli asosida kiyim loyihalash va uning harakatdagi holatlarini oldindan ko‘rish imkoniyati mavjud. Bu esa konstruktiv nuqsonlarni hali real mahsulot tayyorlanmasdan oldin aniqlash va ularni tuzatishga xizmat qiladi. Shuningdek, sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlili asosida individual o‘lchamlar bo‘yicha avtomatlashtirilgan konstruktsiya tizimlari ishlab chiqilmoqda. Ushbu yondashuvlar kiyim ishlab chiqarishda aniqlik, sifat va samaradorlikni oshirishga, hamda inson tanasiga mukammal moslashgan kiyimlar yaratishga yordam beradi [1].

Kiyim loyihalashda qo‘llanadigan konstruktorlik hisoblar odam tanasining tuzilishi, kiyim paketini tashkil etuvchi gazlamalarning hususiyatlari va boshqa omillar to‘g‘risida chegaralangan ma’lumotlarga asoslangan. Odam tanasining oqilona yoyilmasining tuzish shu qadar murakkabki, bu ma’lumotlarning yig‘ilishiga sarflangan harajatlar modellarni oson usullar orqali loyihalab, keyin ularni namunalarda aniqlashga nisbatan ancha-muncha oshadi. Shu bois, hozirgi paytda yangi model namunasini tayyorlash konstruksiyalashning zarur qismi hisoblanadi[2].

Konstruksiyaga o‘zgarishlar kiritish nuqsonlarning paydo bo‘lish sabablarini bilishni va ularni bartaraf etuvchi samarali choralarni birma-bir tanlashni talab qiladi. Shu bois, konstruktor har hil nuqsonlarning tashqi belgilarini, ularni tahlil qilish yo‘llarini, nuqsonlar sabablarini va tayyor kiyimda ularni bartaraf etadigan usullar topa bilishi kerak. Tikuv buyumining benuqson bo‘lishi uchun, texnologik jarayonning barcha bosqichida nazorat kuchaytiriladi. Nuqsonlarning sababi ko‘p. Ular taranglik, g‘ijim, keraksiz tahlamalar, qiyshayishlar sifatida namoyon bo‘lib boshqa omillar to‘g‘risida chegaralangan ma’lumotlarga asoslangan. Qomatda kiyim o‘rnashuvini va muvozanatini buzadi.

Kiyimda uchraydigan nuqsonlar konstruktiv, texnologik va modellashtiruvchi nuksonlari guruhlariga bo‘linadi.

Konstruktiv nuqsonlar - kiyimning o‘lchami va shakli qomat shakliga mos emasligidan paydo bo‘ladi. Ular kiyimda gorizontaal, vertikal, qiyatahlama, g‘ijimlar, burchak tahlamalari muvozanatining buzilishi va dinamik nomoslik nuqsonlari sifatida namoyon bo‘ladi [3].

Tehnologik nuqsonlar - detallar noto‘g‘ri bichilishi, biriktiriladigan detallar tutashmalarining noto‘g‘riligi, biriktiruvchi kertiqlar surilishi natijasida konstruktiv chiziqlar shakli buzilgandana namoyon bo‘ladi. Detaillar qirqimi biriktirishda kam kiritilgansa yoki yetarli cho‘zilmasa, choklar (qiyshaysa, paketni tuzuvchi astar va qotirma detallar bir – biriga shakli va tanda ipining yo‘nalishida mos kelmasa, tikish texnologiyasining nuqsonlari paydo bo‘ladi.

Modellashtiruvchi nuqsonlari - bazaviy konstruksiya hususiyati buzilishiga olib keladigan, texnik modellashtiruvchi hatolari natijasida paydo bo‘ladi[4].

Konstruktiv nuksonlarni bartaraf etish yo‘llari: *Gorizontaal tahlamalar*. Ushbu guruhga oid nuqsonlar ikki hil konstruktiv hatolar natijasida paydo bo‘ladi. Detailning

torligi tarang tahlamlar to‘plamini yoki gorizontal g‘ijimlarni hosil qiladi. Detalning ortiqcha uzunligi esa yumshoq, erkin gorizontal tahlamalarga olib keladi.

Nuqsonlarni bartaraf etish yo‘lini tanlashda, o‘miz sathida joylashgan me‘yordagi tahlamanusbiy hisoblanishini nazarda tutmoq kerak, chunki shuning hisobiga buyumning dinamik mosligi yahshilanadi. Detalning ortiqcha qismidan yig‘ilgan yordamchi tahlamaning chuqurligi nuqson qiymatini bildiradi.

Detalning yangi konturini aniqlashda uning ko‘ndalang o‘lchamlari tahlamaning kiymatiga qisqartiriladi. Nuqsonni hosil qilgan aniqlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, kiyimning ba’zi nuqsonlari tinch holatda, ya’ni tinch holatda ko‘zga tashlanmaydi, lekin, harakat jarayonida kiyimning qarshilik ko‘rsatishi seziladi. Kiyimning tanaga mosligida, eng avvalo, yeng va o‘miz o‘lchamlari va ularning joylanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Past, tor va orqa tomonga surilgan o‘miz qo‘l harakatini qiyinlashtiradi. Baland ko‘tarmali yoqalar, chuqur o‘rta qirqimli shimlar ham noqulay holatlarni keltirib chiqaradi[5]. Agar yeng old va orqa bo‘laklar bazis to‘ri orqali belgilangan chegarasidan surilsa, qo‘llar harakati qiyinlashadi, organizmga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. O‘miz tor bo‘lgan paytda, orqa bo‘lakka cho‘zadigan kuchlar, old bo‘lak o‘miziga esa — siqadigan kuchlar tasir etadi. Bir oz vaqt o‘tgach, yeng o‘z ko‘rinishini yo‘qotib, o‘miz choklari ham shikastlanadi. Bunday nuqsonni yo‘qotishning yo‘li yo‘q [6]. Na’muna qayta tayyorlanganda konstruksiya orqa kenglikni va old yeng o‘mizining yangi chizigini aniqlaydi. Shu usullar orqali nuqsonlar bartaraf etiladi.

Kiyim konstruksiyasidagi nuqsonlar tikuv buyumining funksional qulayligi va estetik ko‘rinishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday nuqsonlar odatda konstruktorlik hisoblaridagi aniqlik yetishmasligi, mato xossalarining to‘liq hisobga olinmasligi yoki texnologik jarayonlardagi xatoliklar natijasida yuzaga keladi. Ayniqsa, konstruktiv nuqsonlar kiyim qomatga mos kelmasligi, harakatlanishda noqulaylik tug‘dirishi, balans va muvozanat buzilishi kabi muammolarga olib keladi. Shuning uchun konstruktor kiyim loyihalashda nafaqat geometrik hisob-kitoblarni, balki inson tanasining harakat xususiyatlarini, mato plastikasini va ergonomik talablarni ham hisobga olishi zarur. Nuqsonlarni aniqlash, tahlil qilish va bartaraf etish uchun namunaviy sinovlar asosiy usullardan biri hisoblanadi. Kiyim sifatini oshirishda har

bir ishlab chiqarish bosqichida qat’iy nazorat va tahliliy yondashuv muhim rol o‘ynaydi.

Adabiyotlar

[1]. Tursumatova Shaxlo Samiyevna, & Mamatqulova Saida Raxmatovna. (2022). The importance of creating embroidery patterns from the methods of artistic decoration in the light industry. Innovative Technologica: Methodical Research Journal,3(05),1–10.

[2].Raxmatovna.M.S.(2022). Analysis of women’s clothes sewing-a study to develop a norm of time spent on the technological process of knitting production. International Journal of Advance Scientific Research.2(03).16-21.

[3].Raxmatovna.M.S.(2022).Research on the development of norms of time spend on the technological process of sewing and knitting production; basic raw materials, their composition and properties.Innovative Technologica: Methodical Research Journal, 3(03), 28-32. ISSN:2776-0987, Volume3, Issue5,May,2022.7

[4]. Raxmatovna.M.S.(2021). The description of perspective fashion trends in men’s clothing. Innovative Technological:Methodical Research Journal,2(10),15-20.

[5].Nizamova, B. B., & Mamatqulova, S. R. (2021). Analysis of the Range Of Modern Women's Coats. The American Journal of Engineering and Technology, 3(9), 18-23.

[6]. Tursunova, X.Sh., Mamatqulova Saida Rahmatovna. (2020). Ayollar paltosi uchun gazlamalar taxlili. 3 rd international congress of the human and social science researches (itobiad).